

## Dars maqsadi: Umumiy maqsad:

**Annotatsiya:** 5–8-sinflar o‘quvchilarida “Bilim nima uchun kerak?” mavzusi doirasida bilimning shaxsiy kamolot, oilaviy va ijtimoiy mas’uliyat hamda Vatanga sadoqatni mustahkamlashdagi ahamiyatini, shuningdek Prezident Shavkat Mirziyoyev g‘oyalari va “Yangi O‘zbekiston” islohotlarining mazmunini hayotiy misollar orqali anglatish hamda ularni kundalik hayotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish.

---

### Aniq maqsadlar:

1. O‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqish va intilishlarini oshirish hamda bilimning inson hayotidagi ahamiyatini tushuntirish.
2. O‘quvchilarga bilim orqali shaxsiy kamolotga erishish mumkinligini anglatish va bu yo‘lda aniq maqsadlar qo‘yishlarini rag‘batlantirish.
3. O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar va imkoniyatlar haqida aniq tasavvur berish.
4. O‘quvchilarda bilim orqali jamiyat va mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘sish istagini shakllantirish hamda bu yo‘lda faol harakat qilish motivatsiyasini kuchaytirish.

### Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

- O‘quvchilar “bilim”ni “axborot” va “ko‘nikma”dan farqlab, uning shaxs, jamiyat va Vatan taraqqiyotidagi rolini izohlaydilar.
  - Bilimi orqali yuqori natijalarga erishgan tengdoshlarini taniydi va Yangi O‘zbekiston islohotlari yaratgan ta’lim imkoniyatlarini bog‘laydilar.
  - Qattiq (hard) va yumshoq (soft) ko‘nikmalarning farqini tushuntiradilar.
  - O‘rganganini kundalik hayotda qo‘llaydi (masala yechish, matn tahlili, xavfsizlik, tejamkorlik, ekologik xulq).
  - Samarali o‘qish odatlarini ishga soladi: maqsad qo‘yish, qisqa reja, savol berish, konspekt qilish; shaxsiy portfolio yuritishni boshlaydi.
  - Bilimi va ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo‘sigan ajdodlar ixtiolaridan xabardor bo‘ladi.
  -
-

 **Metapredmet:** bu ta’limda o‘quvchilarning faqat bir fan doirasida emas, turli fanlar, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo’llay oladigan umumiyoq ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir.

**“Bilim nima uchun kerak?”** darsida: tarix, fan, adabiyot, geografiya, muloqot fan va ko‘nikmalaridan foydalaniladi, misol uchun:

- **Adabiyot:** o‘quvchilar “Bilim – boylik” mazmunidagi maqollarni topib, 1–2 jumlada sharhlaydilar.

- **Muloqot:** juftliklarda 60 soniyalik “Bilim menga va jamiyatga qayerda foyda beradi?” qisqa nutqini taqdim etadilar. **Bu metapredmet yondashuvining qisqa namunasi.**

 **Dars hamkori:** Qori Niyoziy nomidagi milliy tarbiya instituti xodimlari. [www.milliytarbiya.uz](http://www.milliytarbiya.uz)

 **Dars davomiyligi:** 45 daqiqa.

 **Tavsiya etilgan mashg‘ulot shakli:** bilim beruvchi suhbat, video parchalar, zamonaviy qahramoni yoki mashhur kishilar intervyulari, o‘yin elementlari va qo’shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

### **Materiallar to‘plami:**

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar;
- taqdimot.

### **Dars tuzilishi 1 qism. Motivatsion**

Darsning birinchi qismining maqsadi – o‘quvchilarning mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishdir. O‘quvchilarining kelgusi faoliyatiga bo‘lgan motivatsiya mashg‘ulot mavzusini aks ettiruvchi materialni ko‘rish va muhokama qilishga asoslanadi.

### **2-qism. Asosiy**

Asosiy qismda o‘quvchilar darsning asosiy ma’nolarini tushunish va ochib berishga yo‘naltiriladi. Shu maqsadda o‘quvchilarga tasviriy materialni tahlil qilish, videolarni ko‘rish va bilishga qaratilgan savollar taklif etiladi.

### **3-qism. Yakuniy**

Dars g‘oyalarini umumlashtirish, mashg‘ulotga yakun yasash.